

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari227

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari231

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish235

U.X.Gulmatov

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

Q.Sulaymonov

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi253

X.A.Yulbarsova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

I.A.Asatulloev

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

I.A.Suvanov

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar268

M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

M.K.Soipova

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

I.B.Toshpo'latov

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

З.С.Касимова

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации284

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

O'.N.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

M.T.Musayev

Globalashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

G.S.Ro'ziyeva

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi305

TARIX

B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida311

J.Sultonov

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

X.X.Azimov

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

J.Z.Axmedov



UO'K: 327.521

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AFG'ONISTONDAGI IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYATNI MO'TADILLASHTIRISHDA XALQARO MAYDONDAGI TASHABBUSLARI**ДЕЙСТВИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА МЕЖДУНАРОДНОЙ АРЕНЕ ПО СТАБИЛИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ОБСТАНОВКИ В АФГАНИСТАНЕ****THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN'S INTERNATIONAL EFFORTS TO STABILIZE THE SOCIO-POLITICAL SITUATION IN AFGHANISTAN**

Turg'unboyev Zaylobiddin Shohobiddin o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining Afg'onistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirish tashqi siyosati haqida so'z boradi. Markaziy Osiyo davlatlari xususan, O'zbekiston uchun Xalqaro konferensiyalar va maydonda Afg'on muammosi borasida olib chiqqan tashabbuslari ma'qullanishi, shuningdek davlatimizning yaxshi qo'shnichilik siyosatini olib borayotganini ko'rsatiladi. Yana ushbu ilmiy ishda taraflarning diplomatik munosabatlari pozitiv bo'lishligi O'zbekistonning iqtisodiyotiga foyda ekanligi hamda Afg'onistonning xalqaro maydonda tan olinishiga ijobiy ta'sir etishi haqida tahliliy prognozlar keltirilgan.

Аннотация

Данная статья касается внешней политики Республики Узбекистан по стабилизации социально-политической обстановки в Афганистане. В ней освещается активная роль Узбекистана, в особенности его участие в международных конференциях и форумах по афганской проблематике, что свидетельствует о благоприятной внешнеполитической позиции страны. Также в данной научной работе представлены прогностические анализы положительного влияния дипломатических отношений сторон на экономику Узбекистана, а также на позитивный вклад в международное признание Афганистана.

Abstract

This article discusses the external policy of the Republic of Uzbekistan regarding the stabilization of the socio-political situation in Afghanistan. It highlights Uzbekistan's active role, particularly its participation in international conferences and forums on Afghan issues, indicating the country's favorable foreign policy stance. Additionally, the scholarly work presents prognostic analyses of the positive impact of diplomatic relations on Uzbekistan's economy, as well as on the international recognition of Afghanistan.

Kalit so'zlar: BMT, SHHT, Markaziy Osiyo, AQSH, Rossiya, Xitoy, O'zbekiston, Afg'oniston, tashqi siyosat, preventiv diplomatiya, pozitsiya, strategiya, diplomatik munosabatlar, konferensiya, geopolitika, mintaqaviy xavfsizlik, Tolibon hukumati, oppozitsiya, kelishuv, hamkorlik.

Ключевые слова: ООН, ШОС, Центральная Азия, США, Россия, Китай, Узбекистан, Афганистан, внешняя политика, превентивная дипломатия, позиция, стратегия, дипломатические отношения, конференция, геополитика, региональная безопасность, правительство Талибана, оппозиция, переговоры, сотрудничество.

Key words: UN, SCO, Central Asia, USA, Russia, China, Uzbekistan, Afghanistan, foreign policy, preventive diplomacy, position, strategy, diplomatic relations, conference, geopolitics, regional security, Taliban government, opposition, negotiation, cooperation

KIRISH

Markaziy Osiyodan O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalarni potensial rivojlantirish maqsadida tashqi siyosat vektorida o'ziga xos mustahkam o'rni mavjud. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqa davlatlari orasida Afg'oniston Islom amirligi bilan shimol tomondan qo'shni bo'lgan O'zbekistonning xalqaro aloqalari alohida o'ringa ega.

Sobiq SSSR armiyasi Afg'onistondan chiqqandan so'ng, bu davlatda 2-Afg'on fuqarolar urushi ro'y berdi. Voqealar rivoji ichki qarama-qarshi koalitsiyalar paydo bo'lishiga olib keldi. 30 yildan ortiq davr mobaynida davom etgan urush ta'sirida Afg'oniston ham iqtisodiy ham siyosiy parokandlikka yuz tutdi. Shu sababli bugungi kunda Afg'oniston muammosi mintaqaviy muammo

SIYOSAT

ko'lamidan global muammo obyektiga aylandi. Ushbu muammoni yechishda O'zbekistonning o'ziga xos tashabbuslari bor bo'lib, bu tashabbuslar O'zbekistonning tinchlikparvar siyosatini namoyon qiladi.

O'zbekiston va Afg'oniston umumiy tarix, madaniyat, din va geografik joylashuvga ega qo'shni davlatlar hisoblanadi. O'zbekistonning ushbu davlat bilan zamonaviy diplomatik munosabatlari 1992-yil 13-oktabrda o'rnatilgan[1,1].

Xalqaro munosabatlar o'rnatilgan davrdan buyon O'zbekiston Respublikasi Afg'onistonga qo'shni sifatida ko'p marta ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatdi.

Shu o'rinda Afg'oniston masalasiga uzoq muddatli siyosiy ta'sir etuvchi aktorlar sifatida AQSH, Rossiya, Xitoy va mintaqaviy Pokiston, Hindiston, Eron va qolgan Markaziy Osiyo davlatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

TASHQI SIYOSAT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lum davlatni tashqi siyosati yoki xalqaro munosabatlardagi faoliyati o'rganilganda tarixga asosanib tahlil qilish metodi muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada tarixiy tahlil va preventiv diplomatiya hamda sifatli tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tarixiy faktlarga qaraydigan bo'lsak, 1989-yil Sovet ittifoqi armiyasi Afg'onistonni tark etganidan so'ng 90-yillar boshida bu davlatda o'zaro ichki siyosiy nizolar vujudga kela boshladi. O'zaro ichki kurashlar natijasida aholining ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi og'irlashdi.

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalariga nisbatan Afg'onistonda notinchlik kuchaygan bir vaziyatda 1994-yilda BMTning Afg'onistonga maxsus missiyasi tayinlanadi[2,1]. Missiya tarkibidagi O'zbekistonning mavqei juda muhim deb bilingan.

Afg'onistondagi muammoni yechish maqsadida, ilk bor mustaqillikdan so'ng 1995-yil sentabrda O'zbekiston Afg'on muammosiga bag'ishlab Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha maxsus Toshkent seminarini tashkil qildi[3,4]. 1995-yil oktyabr oyida O'zbekiston hukumati BMT Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida O'zbekiston Afg'oniston muammosini hal qilish uchun bir nechta yechim taklifi bilan chiqdi. Ular ichida bu mamlakatga qurol yetkazilishiga **embargo** qo'yishga oid muhim taklif ham bor edi. 1996-yil 16-yanvarda Yevropa Parlamenti Afg'oniston muammosi bo'yicha qaror qabul qildi, unda O'zbekiston tomonidan taklif qilingan ko'p masalalar ijobiy qabul qilindi. 1996-yil iyun oyida Amerika Qo'shma Shtatlari Afg'oniston uchun qurol embargo qo'yganini e'lon qildi. 17-dekabrda esa Yevropa Kengashi ushbu muammoga oid "Ommaviy pozitsiyasini" qabul qildi, shu bilan Afg'onistonga qurol yetkazilishiga embargo qo'yildi.

1996-yil oktabrda Tolibon tomonidan Qobul hukumati egallab olinganidan so'ng Olma-Otada Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya ishtirokida ushbu davlatlar tashqi siyosati kordinatsiyasi va xavfsizlik borasida hamkorlik olib borish masalasi ko'tarilgan xalqaro anjuman o'tkazildi. Anjumanda Afg'onistonda siyosiy kuchlar muvozanati tahlil qilindi va bu davlatda tinchlikni ta'minlash yuzasidan fikrlar almashildi.

Ushbu siyosiy inqirozdan so'ng, 1996-yilda Afg'onistonda na Afg'onistonning qonuniy hukumati na Tolibon butun davlatni nazoratiga ola olmaganidan so'ng, mamlakatda **status quo** holati vujudga keldi. Shunday vaziyat mobaynida 1997-yil avgust oyida O'zbekiston yana bir tashabbus bilan chiqdi.

O'zbekiston hukumati BMT homiyligida aloqa-kelishuv guruhi yaratish, unga Afg'onistonga qo'shni 6ta davlat (Tojikiston, O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Pokiston, Xitoy)ni taklif qilish va tashqi ta'sirchan aktorlar (Rossiya va AQSH) bilan birgalikda 6+2 formatida maxsus guruh tashkillash bo'yicha o'z taklifini ilgari surdi. Shu tashabbusga binoan 1997-yil oktabrda, Nyu York shahrida a'zo davlatlarning vakillari ishtirokida Afg'onistondagi tinchlik masalasi muhokama qilindi. So'ngra, 1998-yil 21-sentabrda mazkur davlatlar tashqi ishlar vazirlari bilan birgalikda Afg'oniston muammosi bo'yicha "Anglashuv memorandumini" hujjati imzolandi.

Maslahat guruhining navbatdagi uchrashuvi 1999-yil 14-yanvarda NyuYorkda, keyin esa diplomatik potensialga ega bo'lib bo'lgan 6+2 formatidagi xalqaro uchrashuv yana bir bor Toshkentda, 1999-yil 19-20-iyul kunlari BMT shafeligida o'tkazildi. Unda Afg'onistonning ichki kurashayotgan kuchlari: Shimoliy alyans va Tolibon vakillari ham qatnashdi.

Toshkentda 6+2 formatidagi yig'ilishning yakunlari bo'yicha Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan hal qilish tamoyillari to'g'risida deklaratsiya imzolandi. Unda konfliktga borayotgan tomonlarning muzokaraga kelish usullari, rejaları va kelishuv joriy qilish bosqichlari nazarda tutildi.

Siyosiy fanlar doktori Akrom Umarov ta'kidlashicha, Toshkent deklaratsiyasida Afg'onistondagi vaziyatni bosqichma-bosqich yumshatish ko'zda tutilgan bo'lib, avvalgi bosqichda urushayotgan tomonlar o'rtasida vaqtinchalik o't ochishlikni to'xtatish bo'yicha bitim tuzish ko'zda tutilgan edi. Chunki, busiz ko'zda tutilgan tinchlikka erishish maqsadlariga Afg'oniston ham, manfaatdor davlatlar ham erisha olmasdi. Ikkinchi bosqichdan asosiy ko'zda tutilgan maqsad Afg'onistonning kelajakdagi davlat tuzilishi asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va afg'onlarning o'zlari tomonidan keng miqyosda vakillik hukumatini shakllantirish edi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng AQSH Afg'onistonda harbiy koalitsiyalarini joylashtirdi, Koalitsiyaning Afg'onistonga kirishi bu davlatning ijtimoiy-siyosiy holatiga o'zining ijobiy va salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bu davrgacha 6+2 formatida o'tkazilgan, Toshkentning hissasi bo'lgan xalqaro guruhlarining Afg'oniston masalasidagi tashabbusi muvaffaqiyatli kechdi. O'zbek diplomatlari aloqa guruhida tomonlarning har biri faol ishtirok etishi uchun ularning har biri bilan ikki tomonlama muloqot va yozishmalar olib bordi. Yana e'tiborga molik tomoni shunda-ki, O'zbekiston tashqi ishlar vazirligi rahbariyati Tolibon harakati vakillari va rahbari bilan muzokaraga jalb qilish maqsadida bir nechta bosqichda majlislar o'tkazadi.

2000-yillarda O'zbekiston 6+2 formatini 6+3 formatiga o'tkazib NATOni ham a'zolikka taklif qilish tashabbusi bilan chiqadi. Ushbu guruh BMT shafeligida Afg'oniston Islom Respublikasidagi vaziyatni barqarorlashtiruvchi xalqaro hamjamiyatning maslahat organi bo'lishni rejalashtirgandi. [4,312-328]. Tashqi kuchlarning Afg'onistondagi dushmanchiligi, tomonlarning qarama-qarshi siyosati, ichki siyosiy nostabillik holatlari aktor davlatlarni tashabbusni qo'llab quvvatlashiga olib kelmadi va natijada amalga oshmadi.

2001-yildan 2015-yilga qadar Xalqaro doiralarda O'zbekistonning birinchi prezidenti tomonidan Afg'oniston masalasini hal qilish bo'yicha turli xil takliflar berildi. Bunga misol sifatida, Islom Karimov 2014-yil 12-sentabrdagi Shanxay hamkorlik tashkilotining Dushanbedagi sammitida Afg'oniston bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini bildirgan holda ushbu davlatda tinchlikka harbiy zo'ravonliklar bilan erishib bo'lmasligini ta'kidladi[5].

Ushbu sammitda "Afg'onistondagi 2014-yillardagi vaziyat doimiy beqaror, yanada keskinlashuv tendensiyasi ro'y berishi mumkin. Afg'oniston xalqining bir nechta avlodi urush davrida katta bo'lgan, shunga ular tinch hayot haqida tasavvurga ega emaslar" deb aytgan edi Islom Karimov. Uning davrida O'zbekistonning Afg'oniston bilan ijtimoiy-iqtisodiy yaqinlashuv ittifoqchiligi past bo'lgan. Hatto 2000-2010-yillar orasida mahsulotlar export-importi mavjud bo'lmagan.

2010-yildan 2016-yilgacha rasmiy Toshkent Hayraton-Mozori Sharif temiryo'lini qurish, avtomobil yo'llari yotqizish, ko'priklar qurish, elektr tarmoqlari tortish kabi moliyaviy yo'l bilan hal bo'ladigan ishlarni o'zaro kelishuv bilan faqat Xalqaro moliyaviy institutlar ko'magida amalga oshirdi. [6].

2016-yil ikkinchi yarmidan O'zbekiston tashqi siyosati katta transformatsiyaga yuz tutdi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining 2-davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev davridan boshlab Afg'oniston bilan munosabatlar yanada jadallashib ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar dinamik tus oldi.

2017-yil may oyida Prezident Afg'onistonga O'zbekistondan maxsus vakilini – Ismatulla Ergashevni tayinladi. Ikki davlat o'rtasida xalqaro munosabatlarning o'sishiga, qayta yaqinlashishida maxsus elchining o'рни katta bo'ldi.

2017-yil 4-6-dekabr kunlari Afg'oniston Prezidenti Muhammad Ashraf G'aning mamlakatimizga rasmiy tashrifi ikki davlat munosabatlarida yangi sahifa ochdi. Muzokaralar yakuni bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarga oid qator hujjatlar imzolandi. Ushbu yilni o'zida O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 39,6 foizga oshib, 599 million AQSh dollarini tashkil etdi[7].

Shu o'rinda aytish kerak-ki, O'zbekiston va Afg'oniston chegara uzunliklari qo'shnilari bilan taqqoslaganda eng kichik, ammo qo'riqlanish jihatidan eng qattig'i hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan Afg'oniston davlati uchun xalqaro anjumanlarda ko'p e'tibor qaratiladi. Sababi, xavfsiz, barqaror qilinishga urinilayotgan ushbu davlatdan O'zbekiston xalqaro logistik-transport korridori sifatida foydalanib Hind okeani, Fors ko'rfazi, hatto Yevropa davlatlari bozorlariga o'z tovar-mahsulotlari bilan chiqish imkoniga ega bo'ladi. Afg'oniston hukumatining avvalgi va hozirgi tizim

SIYOSAT

rahbariyatiga nisbatan O'zbekiston tarafi yaxshi, diplomatik muomala-munosabat ila yondoshmoqda. Bu ham o'rinli aslida.

Har yili sentabr oyida AQSH, New York shahrining Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosida o'tkaziladigan sammitda Afg'oniston mavzusiga doir bir nechta masalalar ko'tarilib, unga nisbatan yechim va takliflar taqdim etiladi. O'zbekiston rahbari ham mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga doir strategik qarashlarini 2017-yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida batafsil bayon qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi minbaridan bildirgan fikrlarini, hamda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha muhim amaliy qadamlarni sanab o'tdi[8]. Ma'lumki, Markaziy Osiyoni xavfsiz, barqaror taraqqiyot va yaxshi qo'shniçilik hududiga aylantirish davlat rahbari tomonidan O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Shavkat Mirziyoyev yana BMT minbaridan muzokaralar orqali ham konferensiyada ham donishmand afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi mustaqil hal qilishga haqli ekanligini ta'kidlagandi[9].

O'zbekiston, xususan Toshkent va Samarqand shaharlarida so'nggi yillarda Afg'onistondagi muammolarga bag'ishlangan bir nechta xalqaro uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Har bir o'tkazilgan rasmiy doiralarda ushbu davlatda mavjud muammolar, jumladan tinç aholiga nisbatan terror hujumi xavfi, narkotik moddalar va qurol savdosi, oziq-ovqat xavfsizligi, ta'lim sohasidagi kamçiliklar va boshqa mavjud muammolar o'rganilib, tahlil qilib ko'rildi. Ayniqsa, 2018-yil 26-27-mart kunlari Toshkent shahrida "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi o'tkazildi.

Ikki qo'shni davlat o'rtasidagi xalqaro hamkorlik yuksak ruhda ekanligi ushbu o'tkazilgan konferensiyadan ham ma'lum bo'ladi. O'shanda O'zbekiston tomoni Afg'oniston muammosini hal qilish borasida qator tashabbuslar bilan chiqqandi.

Konferensiyada Muhammad Ashraf G'ani, BMTning Afg'onistondagi maxsus vakili Tadamiti Yamamoto, Yevropa Ittifoqining Tashqi aloqalar va Xavfsizlik siyosati bosh vakili Federika Mogerini, shuningdek AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni, BAA hamda MO davlatlari Tashqi ishlar vazirlari, 25 davlatdan vakillar va xalqaro tashkilotlar qatnashdi.

2018-yili o'tkazilgan tadbirda samimiy do'stlik munosabatlarining ifodasi sifatida O'zbekiston tomoni milliy ishlab chiqarilgan 25 dona Isuzu rusumli avtobus va New Holland markali 3 ta traktor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan birodar Afg'onistonga hadya etiladi.[10].

Bu kabi yirik formatda muvaffaqiyatli konferensiya uyushtirishda O'zbekiston diplomatlarining Afg'oniston ichki siyosiy guruhlar bilan ta'sirchan, ishonçli, balansga ega diplomatiyasi roli katta. Tomonlar to'g'ridan-to'g'ri, bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lganliklari ulkan formatdagi yig'ilishlarni tashkillashtirishni osonlashtiradi. Va bular bari O'zbek diplomatiyasida katta yutuq hisoblanadi.

Mamlakatda ko'plab iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish borasida O'zbekiston Afg'onistonga amaliy yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Afg'oniston hududida Mozori Sharif – Hirot temiryo'li (730 km, 3milliard dollarga baholanadi), Mozori Sharif – Peshovar (bu o'z ichiga 264ta ko'priç, 7ta tunnel, 641 suv quvurini ichiga oladigan tizimli infrastruktura) temiryo'li, shuningdek Surxondaryo – Puli Xumri elektr tarmog'i (260 km, 150 mln dollar) o'tkazish infrastruktura loyihalari qurishni rejalashtirgan. Bular esa keyinchalik savdo, iqtisodiy aloqalarni ikki davlat o'rtasida yanada o'sishiga, yangi ish o'rinlari paydo bo'lishiga, Afg'on iqtisodi o'sishiga katta ta'sir etadi. O'zbekistonning TAPI (Turkmaniston, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston) gaz quvuri o'tkazish loyihasiga qo'shilishi ham reja ostida turibdi. Bu loyihalar Afg'onistonga ham O'zbekistonga ham foyda keltiradi. Afg'oniston bu o'rinda Markaziy va janubiy Osiyoni bog'lashga xizmat qiluvchi ulkan pozitsiyali davlat bo'la oladi. Afg'oniston orqali o'tgan temir va avto yo'llar MO davlatlarini xatto Afrika davlatlarigacha chiqishiga imkon beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'tkazilgan uchrashuvlardan shu ko'rinadiki, Markaziy Osiyo davlatlari Afg'oniston yo'nalishida konstruktiv hamkorlikning yaxshi namunasini ko'rsatadi. O'zbekiston afg'on muammosiga bag'ishlangan deyarli barcha xalqaro forumlarda faol ishtirok etmoqda. «Kobul jarayoni», «Moskva formati», «Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni» forumi, Afg'oniston bo'yicha

xalqaro aloqa guruhi, «ShHT – Afg'oniston» aloqa guruhi, Afg'oniston bo'yicha mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasi shular jumlasidandir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirish asnosida O'zbekiston afg'on muammosini tinch yo'l bilan yechish bo'yicha siyosiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Tashqi siyosatda O'zbekiston yana preventiv diplomatiyaga ham asoslanmoqda. Preventiv diplomatiya termin sifatida tinchlikni saqlash va tinchlikni saqlovchi institutlar bilan aloqalarni yuksaltirish masalasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Markaziy Osiyo xalqaro instituti direktori o'rinbosari Baxtiyor Mustafoev 2021-yil iyul oyida Toshkentda "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy aloqa imkoniyatlari" mavzusida bo'lib o'tgan anjuman borasida fikr bildirar ekan O'zbekiston Afg'onistonning energetika, sanoat, transport, aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalariga sarmoya kiritishdan manfaatdor ekanligini bildirgandi. Shuningdek, siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Mustafoyev mintaqaviy aloqalar stabiligi uchun Afg'onistonda tinchlik juda muhim ekani va bu faqat Afg'oniston ichki guruhlari kelishuvi orqali yuz berishi mumkinligini aytgandi. Unga ko'ra, Tolibonning o'z va'dalarini qanday qilib amalga oshirishi hali beri ravshan ko'rinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining sa'y-harakatlari Markaziy Osiyo mamlakatlarning davlatlararo va parlamentlararo aloqalarini faollashtirishga kuchli turtki bo'ldi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston mintaqadagi qo'shnilar bilan ko'p yillar davomida hal qilinmagan ko'plab masalalarni hal qilishga muvaffaq bo'ldi. Transchegaraviy daryolardan birgalikda foydalanish, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotini integratsiyalashtirish, transchegaraviy savdoni rivojlantirish bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taklif qilib, O'zbekiston bu davlatlar bilan hamkorlikning yangi formatini qurishga qodir ekanligini isbotladi[11,211].

Mutaxassislar O'zbekistonning Afg'oniston masalasidagi motivlarini 3 ta tarmoq bo'yicha tasniflaydilar: **iqtisodiy yo'nalish, xavfsizlik va xalqaro nufuz**. Iqtisodiy jihatdan misol qilib O'zbekistonning qo'shni mamlakat hududlariga elektr energiyasini yetkazib berishini olish mumkin. Bunda O'zbekiston elektr energiyasini asosiy xorijiy yetkazib beruvchisi bo'lgani e'tiborga molik. Masalan, 2016-yilda Afg'onistonga 1654,1 mln kVt/soat elektr energiyasi eksport qilingan bo'lsa, bu raqam 2018-yilda 2009,1 mln kVt/soatga oshib, 2592,4 mln.kVt/soatga yetdi[12].

O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan tashkil etilgan konferensiyalar dunyo hamjamiyatining Afg'onistonga e'tibor qaratishga chaqirdi. Masalan, Toshkent konferensiyasi oldida turgan yuksak maqsadlar, shuningdek, uning ishida BMT Xavfsizlik Kengashining barcha doimiy a'zolari, ShHTga a'zo davlatlar va Afg'onistonga qo'shni mamlakatlar, jumladan, Markaziy Osiyoning beshta mamlakati ishtirok etishi butun dunyoda forum ishiga katta qiziqish uyg'otgan edi.

O'zbekiston yirik shaharlarida bo'layotgan konferensiyalar haqida fikr bildirilar ekan, bunday tashabbuslar O'zbekiston uchun bir martalik tadbir sifatida emas, balki ikki va ko'p tomonlama munosabatlar doirasida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish borasidagi uzluksiz amaliy-siyosiy jarayonga aylanishi qo'shni davlat, jumladan bizning siyosiy arboblarning muhim vazifasi bo'lib qoladi.

O'zbekistonlik diplomatlar Afg'on tinchlik jarayoni bo'yicha o'tkazilgan konferensiyalarda ishonchli vositachi rolini o'ynamoqdalar, ular barcha ishtirokchilarni muzokaralar stoliga olib kelishni tezashtirib bermoqda.

Shunday bo'lsa-da, bu jarayonda asosiy rol va javobgarlik o'z mamlakati kelajagini belgilashi va qurishi kerak bo'lgan afg'onistonliklarning o'zini zimmasida ekanini yana bir bor ta'kidlash joiz.

Afg'onistonda Tolibonning hukumatga kelishi O'zbekiston davlatchiligi tomonidan hali xalqaro yuridik jihatdan tan olinmadi. Shunga qaramay, O'zbek siyosiy elitasi Afg'onistonni qo'shni sifatida hurmatini joyiga qo'yib, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini yaxshilashi uchun sharoit yaratmoqda. O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan keyingi bosqich munosabati strategik sherikchilik ustiga qurilishi ikki davlat uchun ham foyda olib keladi.

Davlatimizning Afg'oniston borasidagi oqil siyosati va tashabbuslari butun dunyo mamlakatlari, xalqaro tashkilotlar hamda Afg'onistonda – uning xalqi, bugungi kun hukumati tomonidan munosib kutib olinmoqda. Alohida ta'kidlash joiz-ki, zamonaviy Afg'oniston siyosiy elitasi - Tolibon hukumatining O'zbekiston bilan tutayotgan bugungi siyosati ehtiyotkorona va hurmat ustiga qurilgan.

XULOSA

O'zbekiston Afg'oniston masalasidagi ochiq tashqi siyosati bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish, ichki siyosiy kuchlarni hamjihatlikka chaqirishdir. Xalqaro konferensiyalarda O'zbekistonning Afg'oniston masalasiga urg'u berishi, global aktarlarni hududdagi vaziyatga e'tibor qaratishni so'rash, Afg'oniston ichidagi turli millatlarni birdamlikka chaqirishi, bu davlatda turli loyihalarga start berishi xalqlarimizning qo'shning tinch-sen tinch maqol-shioriga ham amal qilishini ko'rsatadi.

Afg'on xalqi farovonligi O'zbek davlatchiligi uchun faqat foydali hisoblanadi. 40 yildan oshgan urush Afg'onistonni holdan toydirgan. Afg'oniston davlatchiligi, xususan hukumatni bugungi kunda boshqarayotgan Tolibon guruhi oldida o'z aholisi ta'lim olish darajasini oshirish, farovonligini ko'tarish, notinch hududlarida tinchlik o'rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va xalqaro aloqalarni qaytadan tiklash kabi vazifalari turibdi. Afg'onistonda bu kabi muammolar bartaraf etilishi Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligi omili bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bothe M. and Andreas F. Afghanistan and the Paradox of Sovereignty. German Law Journal, Germany 2002. -Vol. 3. Issue 9-p.1.
2. "O'zbekiston Respublikasi diplomatik aloqalar o'rnatgan davlatlarning ro'yxati". «mfa.uz», Tashqi ishlar vazirligi rasmiy web-sayti, <https://mfa.uz/uz/pages/strani-kotoriye-uzbekistan-ustanovil-diplomaticheskiye-otnosheniya>
3. Umarov A. The "Afghan factor" in Uzbekistan's foreign policy: Evolution and the contemporary situation, Asian Affairs, 2021.- p.4.
4. Kristin Fjæstad and Heidi Kjærnet, 'Performing Statehood: Afghanistan as an Arena for Central Asian States'. Central Asian Survey, Vol. 33. Issue 3 (2014): 312-328.
5. Islam Karimov: Peace in Afghanistan cannot be achieved with military force. «uzdaily.uz», 13-sentabr 2014, <https://www.uzdaily.uz/en/post/29171>
6. Andrew C. Kuchins and Jeffrey Mankoff, 'Central Asia in a Reconnecting Eurasia: U.S. Policy Interests and Recommendations'. Center for Strategic and International Studies, May 11, 2015. https://csis-website-prod.s3.amazonaws.com/s3fs-public/legacy_files/files/publication/150507_Kuchins_CentralAsiaSummaryReport_Web.pdf (accessed 30 June 2021).
7. "O'zbekiston Afg'oniston muammosini hal qilishda o'zining prinsipial pozitsiyasiga ega". «uza.uz», O'zbekiston milliy axborot agentligi, 16-mart 2018-yil, <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-afg-oniston-muammosini-hal-qilishda-o-zining-pri-16-03-2018>
8. "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi". «president.uz», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 29-sentabr 2017-yil, <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
9. 'Стратегическое видение Президента Шавката Мирзиёева вопросов обеспечения региональной безопасности и решения афганской проблемы'. Народное слово, 29 февраля 2020. ['Strategicheskoe videnie Prezidenta Shavkata Mirziyoyeva voprosov obespechenija regional'noj bezopasnosti i reshenija afganskoj problemy'. Narodnoe slovo, February 29, 2020.] https://uza.uz/ru/posts/strategiches_koe-videnie-prezidenta-shavkata-mirziyeeva-vopro-29-02-2020 (accessed 20 June 2021)
10. "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi". «president.uz», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 29-sentabr 2017-yil, <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
11. 26—27-mart kunlari Toshkent shahrida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi o'tkaziladi. «daryo.uz», 16-mart 2018, <https://daryo.uz/2018/03/16/26-27-mart-kunlari-toshkent-shahrida-afgoniston-boyicha-yuqori-darajadagi-toshkent-xalqaro-konferensiyasi-otkaziladi>
12. NSIAIRA, (National Statistics and Information Authority of Islamic Republic of Afghanistan), (2019), Afghanistan Statistical Yearbook 2018-2019, <https://www.nsia.gov.af:8080/wp-content/uploads/2019/11/Afghanistan-Statistical-Yearbook-2018-19.pdf>
13. Institute of Strategic Studies. Report – Panel Discussion, "Conversations on the Afghan Peace Process: Uzbekistan's Role in Afghanistan," 2021.- p.3.
14. Fayzullayev A. H. Afg'oniston konfliktining hal qilinishi bo'yicha O'zbekistonning preventiv diplomatiyasi. 2021.423, 211-b.
15. "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzuida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi. «un.int», 7-mart 2018, <https://un.int/uzbekistan/fr/news/%C2%ABtinchlik-jarayoni-xavfsizlik-sohasida-hamkorlik-va-mintaqaviy-sheriklik%C2%BB-mavzuida-afg%E2%80%98oniston>